

DUNYODAGI ILK KONSTITUTSIYALARNING YARATILISH TARIXI

Toshboyeva Muxlisa Shuhratovna¹

¹ Yangi asr universiteti Tarix yo'nalishi magistranti

MAQOLA MALUMOTI

ANNOTATSIYA:

MAQOLA TARIXI:

Received:16.02.2025

Revised: 17.02.2025

Accepted:18.02.2025

KALIT SO'ZLAR:

Konstitutsiya, tarix,
qonunlar to'plami,
davlatlar qomusi,
Xammurapi qonunlari,
davr talabi,
demokratiya,
konstitutsiyaviy huquq.

Bugungi kunda har bir davlatning asosiy qomusi konstitutsiyasi yoki shunga o'xshash qonunlar to'plami asosida davlat idora etiladi. Konstitutsiya davlatning asosiy hujjati bo'lib davlat boshqaruvi hukumat organlari faoliyati tartibi va tamoyillari davlat jamiyat fuqorolarning huquqiy hamda majburiyatylari u bilan belgilanadi. Xo'sh dastlabki Konstitutsiya yoki shunga o'xshash qonun hujjatlari qachon paydo bo'lgan. Konstitutsiya so'zining manosi "o'rnataman tasdiqlayman" degan manoni anglatadi. Davlat konstitutsiya paydo bo'lgan davrdan ancha ilgari vujudga kelga va Konstitutsiyasiz faoliyat yuritgan.

KIRISH. Zamon taraqqiy etishi bilan Konstitutsiyani davlatsiz davlatni Konstitutsiyasiz tassavur etish bilan konstitutsiyani davlatsiz davlatni konstitutsiyasiz tasavur qilish qiyin. Lekin ular ijtimoiy taraqqiyotning turlari davr mahsulidir konstitutsiya atamasi hozirda "tuzilish" degan manoda ham ishlatiladi. Yuridik jihatdan Rim imperatorning ko'rsatmalari ham konstitutsiya deb atalgan davrlar bo'lgan. Qadimgi davlatlarda Konstitutsiya vazifasini turli xil qonun hujjatlari bajargan ulardan eng qadimgisi "Xammurapi qonunlari" deya atalgan SHuningdek uni Xammurapi kodekslari deb ham atashgan. Qadimgi Bobilning qonunchilik manbai hisoblangan. Mil.av. 1750-yillarda qirol Xammurapi davrida yaratilgan. Dunyodagi eng qadimiy huquqiy yodgorliklardan biri hisoblanadi. U mixxat yozuvida yozilgan bo'lib 1901-1902yillarning boshida Eron hududidagi Suza shahridan topilgan. Zamonaviy tadqiqotchilar qonunlarni, sud ishlarini

yaratish, mulkning turli shakllarini va nikoh va oilaviy munosabatlarni shuningdek ma'muriy va jinoyat huquqlarini tartibga soluvchi 282 bandga ajratadilar. Xammurapi qonunlari ibtidoiy jamiyatda paydo bo'lgan yozilmagan xulq atvor qoidalari normalarining ammal qilishini birlashtirish va to'ldirishga mo'ljallangan mavjud mavjud huquqiy tartibotning katta islohati natijasidir. Qadimgi Mesopatamiya mixxat huquqi taraqqiyotining cho'qqisi sifatida qonunlari ko'p asrlar davomida Qadimgi sharqning huquqiy madanyatiga ta'sir ko'rsatgan. Xammurapi qonunlari yuridik manbaning dastlabki yozma qoidalar va tamoyillarni o'zida aks ettirgan. Qonunlarning dastlabki 5 –moddasi odil sudlov jarayoniga bag'ishlangan bo'lib unga yolg'on guvohlik berish mumkin emasligi buning uchun o'lim jazosi belgilangan (3moddasi) sud jarayonida dalillar yetarli bo'lmasa "xudo sudi"ga murojat qilinadi deya takidlangan. Qadimgi Rimda esa bunday hujjat anchasigari paydo bo'lgan. Ular XII jadval qonunlari deya atalgan ular rim qonuning mashhur yodgorligidir. Ular Rim qonuning mashhur yodgorligi hisoblanadi. Olimlarning fikriga ko'ra XII jadval qonuning manbasi Afina qonunlari hisoblanadi. Ushbu qonunlar asosan yozilishi yillari Hukmron tabaqaning urf odatlarini ularning hukmronligini o'zida ifoda etadi. Ular hukmron sinfnining mufoviq tanlangan XII jadval qonunlari ushbu davrxos huquqiy ongni to'liq aks ettiradi. XII jadval qonunlari qabul qilingandan keyin odatiy qonunlar ikkiga bo'lingan Ulardan biri ichki rim jamoati (kvirite-keyin fuqorolik qonunlari deb ataladi) XII jadval qonunlari unga xosdir. Ikkinchi qonun Rim davlati va boshqa davlatlar o'rtasidagi munosabatlarni tartibga soladi. XII jadval qonunlari, Xammurapi qonunlari, Manu qonunlari bularning barchasi huquqiy normalarning muayyan jamiyatning xususiyatlarini aks ettiradi. Davrlar o'tishi bilan davlatlar rivoj topdi va endi ularga takomillashgan nisbatan mukammalroq qonunlar to'plami kerak bo'la boshladi. Davlatlar paydo bo'lgan davrdan boshlab davlat va shaxs o'rtasidagi munosabatlar mavjud bo'lgan va munosabatlar o'lchovida davlat manfaati doimo ustun turgan. XVII XVIII asrlar o'rtasida fuqorolar o'z erki uchun kurashi nihoyatda kuchaygan. Feodal tuzum o'rnida vujudga kelgan burjua tuzumi ham shu kurashlar natijasidir. Shu davrdagi demokratik revolutsiyalar oqibatida qo'lga kiritgan yutuqlarni alohida qonunlar doirasida mustahkamlash zarurati tug'ildi. Bunday qonun sifatida konstitutsiya paydo bo'ldi. Dastlabki konstitutsiya hisoblanuvchi AQSH ning 1787-yilgi konstitutsiya davlatning asosiy qonuni sifatida o'rnatildi U qonunchilik, ijro, sud hokimiyatni tashkil etish prinsiplari va tartibi, federatsiya tartibiga kiruvchi subyektlar huquqlarini belgilash bilan cheklangan edi. Fuqaro shaxs huquqlari unda belgilanmadi faqat Kongress fuqarolar huquq va erkinliklariga zid keluvchi qonunlar qabul qilish mumkin emasdegan qoida unda o'z aksini topdi. Konstitutsiya yaratuvchilarning fikricha nima

taqiqlanmasa shu mumkin degan g'oya prinsip fuqarolarning huquq va erkinliklarini ro'yobga chiqarish taminlashi mumkin edi.

Lekin xalq bunga rozi bo'lmadi ular asosiy qonunda huquq va erkinliklarni alohida mustahkamlab qo'yishni talab qilib chiqdi va ularning talabi asosida ikki yil ichida konstitutsiyaga o'nta qo'shimcha kiritildi va bu qo'shimchalar inson huquqlariga taaluqli bo'lib "Huquqlar haqidagi Bill" deb tarixga kirdi. Konstitutsiya davlatning asosiy qonuni cheklanmagan davlat hokimiyati xafli ekanligini anglagan davlat falsafaning malum elementi bo'lib qoldi. hokimiyatning cheklanmaganligi og'ir oqibatlariga to'ntarishlarga, inqirozga olib kelishini oddiy xalq emas, hukmronlar ham tushunib yetdi va davlat hokimiyatini cheklash belgilandi. Bu o'z navbatida jamiyatning boshqa azolari – xalqni huquq va erkinliklar bilan taminlashga olib keldi. Konstitutsiya hokimiyat va erkinlik davlat va shaxa o'rtasida mutanosib muvozanat bo'lishini ta'minlovchi vosita bo'lib maydonga chiqdi.

Lekin konstitutsiya vujudga kelishida davlatlar tyomonidan qabul qilinishi hamma vaqt va hamma joyda ko'zlangan natija bermadi yoki bermaydi. Chunki eng demokratik prinsiplar va ko'pchilik manfaatiga mos qoidalardan iborat konstitutsiyalar ham tegishli tuzumlarning xususiyatlaridan hokimiyatdagi hukmronlarning xohish irodasidan kelib chiqib tor doiralar manfaatiga xizmat qilishgi mumkin. Buni Sobiq Ittifoq konstutsiyaviy tajribasida aniq ko'rish mumkin

Shuning uchun "davlat va konstitutsiya" deganda ularni faqat do'stlikda hamkorlikda deb qarash uncha to'g'ri fikr emas "davlat va konstitutsiya" o'rtasida qarama qarshilik bo'lishi tabiiydir. Lekin jamiyat mavjud qarama qarshiliklarni hech kuch ishlatmay hal qilish yo'lini topsa bunday qarama qarshiliklar xafli bo'lmaydi. Demokratik davlatlar – konstitutsiyaviy davlatlardir. Lekin har qanday konstitutsiyaga ega davlatni konstitutsiyaviy yoki demokratik davlat deb bo'lmaydi. Davlatni ham demokratik, ham konstitutsiyaviy deb atash uchun demokratik prinsip va qoidalardan iborat konstitutsiya bo'lishi va konstitutsiyaning barcha normalarini ammalga oshirish uchun imkoniyatlar yaratilgan bo'lishi kerak. Barcha dunyo mamlakatlarining konstitutsiyalarini ko'rsak ularni yo xalq qabul qilgan, yoki xalq nomidan qabul qilingan degan iboralarni uchratamiz.

O'rta asrlarda qabul qilingan konstitutsiyalar orasida 1529-yilda qabul qilingan Litva knyazligi konstitutsiyasi eng qadimiysi hisoblanadi. Buyuk Litva knyazligi tomonidan hozirgi Belarus hududlarini rasman qonunlashtirgan birinchi urinishda ammalga oshirilgan. Bu urinish Litva nizomlari shaklida joriy qilingan. Eski Belarus tilida yozilgan ushbu hujjat davlatning oliy qonuni rolini bajargan.

Bugungi kunda ham ammaldagi bo'lgan qadimiy konstitutsiyalar orasida Aqsh konstitutsiyasi ham bor. U 1787-yil 17 sentabrda Filadelfiya shahrida 13 shtat tomonidan qabul qilingan. Aqsh konstitutsiyasi dunyodagi eng qat'iy ammal qiladigan konstitutsiyalar qatoriga kiradi. Turli davlatlarning konstitutsiyalariga davrlar o'tishi bilan o'zgartirishga ehtiyoj tug'iladi. Shu jumladan Aqsh konstitutsiyasiga ham 27 marta o'zgartirish kiritilgan.

AQSH konstitutsiya qabul qilayotgan mualliflari uning mukammal bo'lmashligini va unga qachondir o'zgartirish kerakligini yaxshi tushungan. Shu sababli 5- moddasida konstitutsiyaga o'zgartirish kiritish tartibi belgilanadi. Unga ko'ra taklif qilinayotgan tuzatish vakillar palatasi va senat deputat va senatorlarning uchdan ikki qismi tomonidan maqullanib shtatlar qonun chiqaruvchi va qonun chiqaruvchi organlarning to'rtidan uch qismi tarafidan ratifikatsiya qilingan taqdirdagina konstitutsiyaga kiritilishi belgilab qo'yiladi. Aqsh konstitutsiyasiga kiritilgan dastlabki 10-o'zgartirish "huquqlar to'g'risidagi Bill" deb nomlanib 1791-yil ratifikatsiya qilingan. Uning muallifi "Aqsh konstitutsiyasi otasi" deb tilga olinuvchi Jeyms Madisondir.

Konstitutsiya amerikaliklar uchun muqaddas hujjat hisoblandi. Aqsh huquq tizimi anglo-amerikan huquq oilasiga kirgani uchun mamlakatda qonunchilik tashabbusiga asosan Oliy sud va sudlarga ega sanaladi. Aqsh Oliy sudi va sudlari turli huquqiy ishlarida Konstitutsiya moddalaridan foydalanadiva unda yo'q moddalar kiritish taklifini beradi. Konstitutsiya moddalari majburiy va buzilmas bo'lib hech qanday qonun uning qoidalariga zid kelmasligi kerak. Bugungi kunga qadar Aqsh konstitutsiyasiga o'zgartirish kiritish uchun yuzmingdan ortiq qonunlar ko'rib chiqilgan biroq ularning faqat 27 tasi tasdiqdan o'tgan va kongress tomonidan ratifikatsiya qilingan.

Konstitutsiya insoniyat tarixida taraqqiyotning malum vaqtida yangilikning eskilik ustidan, erkinlikning haqsizlik ustidan taraqqiyotning turg'unlik ustidan g'alabasini qonuniy mustahkamlagan hujjat bo'lib u insonning or-nomusi, qadr-qimmatini, mol-mulk himoyachisidir. Degan ta'rif konstitutsiyaning o'rnini ko'rsata oladi va bunga e'tiroz bo'lmasa kerak.

Konstitutsiyaning vujudga kelishi insoniyat tarixi taraqqiyoti mahsuli bo'lib, u butun dunyoda rivojlanishga katta hissa qo'shmoqda.

O'zbekiston Respublikasining Birinchi Prezidentining ; "Tabiiyki har qanday davlatning yuzi, obro'-etibori uning konstitutsiyasi hisoblanadi. Zotan, Konstitutsiya davlatni davlat, millatni millat sifatida dunyoga tanitadigan Qobusnomadir"- degan so'zlar faqat O'zbekiston konstitutsiyasiga emas, umuman konstitutsiyalarga berilgan bahodir.

Foydalanilgan adabiyotlar:

- 1.O.T.Husanov Konstitutsiyaviy huquq Toshkent Adolat.2013.
- 2.WWW.ziyo.com
- 3.Karimov I.A Bizdan ozod va obod Vatan qolsin T2-T; O'zbekiston -1996 yil.

